



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyojonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoira Azimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI	251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI	255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR.....	262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li	
“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQRISH USLUBIYOTI	269
Raxshona Nabibullayeva	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	275
Baxadirov Alisher Komilovich	
TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	281
Nomozov Umid Iskandarovich	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING.....	285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna	
XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI.....	297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi	
XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI	302
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR	306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.....	316
Xamidova S.Ya.	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	322
Ro'zieva Gulchexra O'sarovna	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O'TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	328
Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna	
O'ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	333
Isomiddinova Xilola Xasan qizi	
ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ.....	338
Муниса Турдибаева	
O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	350
Xamdamova Guljaxon Ablakulovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	357
Malikova Ug'iloy Abdurasul qizi	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH VA CO ₂ EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG'I (EKC) ASOSIDA TAHLIL	363
Choriyev Maxmayoqub	
YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA "NAVOIYAZOT" AJ AMALIYOTI	368
Sayidova Shahlo Toshtemirovna	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	373
Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MODELİ	381
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI.....	386
Qo'ldosheva Xolisa	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	393
Hakimov Nodir Nazarovich	



SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DRAYVER TARMOQLARNING O'RNI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	399
Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	404
Yusupov Ravshanbek Aminbaevich	
ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ "ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ"	410
Джумаев Аскар Хайдарович	
UNIVERSITETLARDA NATIJA MEZONLARINI JORIY QILISH VA MAGISTRATURA BOSQICHIDA QISQARTIRILGAN ISH VAQTI MAOSHI ORQALI BUDJET YUKLAMASINI KAMAYTIRISH	415
Primova Nigora Ikrom qizi	
SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDOSINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI	422
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA BANDLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SIYOSATINING ROLI.....	427
Tadjiyev Bezzod Umidjanovich	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ SIYOSATI VA MOBIL BANKINGNING O'RNI.....	437
Irgashev Anvar Farxodovich	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	444
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA IQTISODIY XATARLARNI STOXTASTIK MODELLASHTIRISH: NAVOIY VILOYATI SANOAT KLASTERLARI MISOLIDA	449
Shoyimov Sarvar Qahramon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING TARKIBI, DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	455
P.SH. Usmonov	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БИЗНЕСА	458
Шарипов Даврон Муродович, Игамбердиева Асаль Эркин кизи	
PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING POLITICAL SCIENCE AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	464
Rasulev Bobirjon Atkhamovich	
ECONOMIC MECHANISMS FOR IMPROVING PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	468
M.O. Yo'ldoshova	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ESG В СИСТЕМУ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	472
Умиршайхов Баходир Бахтиярович	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT: NORMATIV-HUQUQIY ASOS, MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	480
Ro'zmetov Mansur	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT: NORMATIV-HUQUQIY ASOS, MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ro'zmetov Mansur

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida ichki auditning normativ-huquqiy asoslari, xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori, Iqtisodiyot va moliya vazirligining ichki audit milliy standartlari va qo'llanmalariga oid buyruqlari, shuningdek, xalqaro standartlar tahlil qilingan. Ichki auditning budjet tashkilotlarida amaliy tatbiqi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida maqsadli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, budjet tashkiloti, ichki audit milliy standartlari, moliyaviy nazorat, risk menejment, budjet intizomi, davlat xarajatlari samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the regulatory and legal framework of internal audit in budget organizations, in particular the Resolution No. 416 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 1, 2022, orders of the Ministry of Finance on national internal audit standards and guidelines, as well as international standards. The practical implementation of internal audit in budget organizations, existing problems, and ways to address them are studied from a scientific and practical perspective. Based on the research results, targeted recommendations have been developed.

Key words: internal audit, budget organization, national internal audit standards, financial control, risk management, budget discipline, efficiency of public expenditures.

Аннотация. В данной статье проанализированы нормативно-правовые основы внутреннего аудита в бюджетных организациях, в частности постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 416 от 1 августа 2022 года, приказы Министерства финансов, касающиеся национальных стандартов и методических рекомендаций внутреннего аудита, а также международные стандарты. Рассмотрены практическое применение внутреннего аудита в бюджетных организациях, существующие проблемы и пути их решения с научно-практической точки зрения. На основе результатов исследования разработаны целевые рекомендации.

Ключевые слова: внутренний аудит, бюджетная организация, национальные стандарты внутреннего аудита, финансовый контроль, управление рисками, бюджетная дисциплина, эффективность государственных расходов.

KIRISH

O'zbekistonda moliyaviy boshqaruvni zamonaviylashtirish, budjet intizomini mustahkamlash hamda davlat xarajatlari samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda 2022-yildan boshlab ichki auditni tartibga soluvchi yangi me'yoriy-huquqiy bazaning shakllantirilishi muhim institutsional o'zgarish sifatida baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ichki auditni rivojlantirish uchun yangi zamin yaratdi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi Namunaviy nizom tasdiqlandi. Keyinchalik Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ichki audit milliy standartlari va qo'llanmalari ham tasdiqlandi.

Ushbu maqola mazkur me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, budjet tashkilotlarida ichki auditning amaliy tatbiqini o'rganish hamda uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda budjet tashkilotlarida ichki auditni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza so'nggi yillarda izchil ravishda shakllanib bormoqda. Ushbu tizimning asosi bo'lgan hujjatlar jadvalda keltirilgan.



1-jadval. Ichki auditni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar

№	Hujjat nomi	Ahamiyati
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-128-son qarori (14.02.2022)	Ichki auditni rivojlantirish uchun asosiy siyosiy yo'nalish belgilangan; Davlat moliyaviy nazorat organlari faoliyatini takomillashtirish vazifalari aniqlangan
2	Vazirlar Mahkamasining 416-son qarori (01.08.2022) — Namunaviy nizom	Ichki audit xizmatining tuzilishi, vakolatlari, mustaqilligi, huquq va majburiyatlari hisobdorligi belgilangan;
3	Vazirlar Mahkamasining 377-son qarori (14.08.2023) — Baholash tartibi	Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash mexanizmi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakolatlarini belgilangan
4	Moliya vaziri buyrug'i — Ichki audit tadbirlarini o'tkazish Qo'llanmasi (ro'yxat №3406, 27.12.2022)	Ichki audit tadbirlarini rejalashtirish, o'tkazish, hujjatlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish tartibi belgilangan
5	Iqtisodiyot va moliya vazirligi buyrug'i №62 (13.02.2023) — Sertifikatlash nizomi	Ichki audit xizmatlari xodimlarini milliy malaka sertifikatiga tayyorlash va sertifikatlash tartibi belgilangan

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qaroriga ilova qilingan Namunaviy nizomda ichki audit xizmati faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi muhim qoidalar belgilangan:

- Ichki audit xizmati mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilib, boshqa tarkibiy bo'linmalardan alohida faoliyat yuritadi hamda bevosita vazirlik yoki idora rahbariga bo'ysunadi.

- Ichki audit xizmati xodimlari ichki auditning milliy standartlari va ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi asosida ish yuritadi (7-band).

- Ichki audit xizmati xodimi lavozimiga ichki audit bo'yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi (10-band). Malaka sertifikatiga ega bo'lmagan shaxslar uchun 2024-yil 1-aprelgacha muddat berilgan.

- Vazirlik va idoralar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ichki audit xizmati faoliyati natijalari yuzasidan choraklik va yillik hisobotlarni taqdim etadi.

- Nizomda ichki audit tadbiri, ichki audit xizmati hamda vazirlik va idoralar tushunchalari aniq belgilangan (2-band).

Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i bilan 2022-yil 27-dekabrda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 3406-raqam ostida ro'yxatdan o'tkazilgan "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi" budjet tashkilotlarida ichki auditni amaliy tashkil etishning batafsil uslubiy asosini shakllantiradi. Ushbu qo'llanmada quyidagilar belgilangan:

- Ichki audit yillik rejasini tuzish tartibi: xavf (risk) tahlili asosida bir yil uchun audit obyektlarini aniqlash.

- Audit tadbirini o'tkazish bosqichlari: dastlabki tahlil, tadbirni amalga oshirish, xulosalar shakllantirish, hisobot tayyorlash.

- Hujjatlarni rasmiylashtirish standartlari.

- Tavsiyalar ishlab chiqish va ularning ijrosini kuzatish mexanizmi.

- Ichki audit tadbiri jarayonida aniqlangan qonunchilik buzilishlari bo'yicha Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasini xabardor qilish tartibi (70-band, 2025-yil aprel oyidagi tahrir).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini takomillashtirish, uning normativ-huquqiy asoslari va amaliy samaradorligini baholash masalalari kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy bilishning umumiy, xususiy hamda amaliy usullariga tayangan holda shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki Auditorlar Xalqaro Instituti (IIA) ta'rifiga muvofiq, ichki audit — tashkilotga qo'shimcha qiymat qo'shish va uning faoliyatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan mustaqil va obyektiv kafolat hamda maslahat faoliyatidir. Bu ta'rif O'zbekiston qonunchiligiga ham keltirilgan: 416-son qarorga ilova qilingan Namunaviy nizomda ichki audit faoliyati — "vazirlik va idoralarda budjet intizomini mustahkamlash, budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish" maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat sifatida belgilangan.

Xalqaro va milliy standartlarga asosan, ichki audit quyidagi beshta asosiy tamoyilga tayanadi: mustaqillik, obyektivlik, maxfiylik, malaka va halollik. Mustaqillik tamoyili 416-son qarorida alohida ta'kidlanib, ichki audit



xizmati boshqarmasining faoliyatiga vazirlikning boshqa mansabdor shaxslari aralashishiga yo'l qo'yilmasligi qayd etilgan.

Budjet tashkilotlari uchun ichki auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- budjet qonunchiligiga rioya etilishini tahlil qilish va baholash;
- davlat xaridlari va shartnomalar ijrosini monitoring qilish;
- moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash;
- xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish;
- budjet mablag'laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish holatlarini profilaktika qilish;
- rivojlantirish dasturlari samaradorligi natijalarini tahlil qilish.

Budjet tashkilotlarida nazoratning ikki asosiy shakli — ichki va tashqi nazorat — bir-birini to'ldiruvchi, ammo mohiyatan farqli mexanizmlardir. O'zbekistonda tashqi nazoratni Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi amalga oshiradi. Ularning ichki audit bilan asosiy farqi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (2-jadval)

2-jadval. Ichki audit va tashqi nazoratning qiyosiy tahlili

Taqqoslash mezonlari	Ichki audit	Tashqi nazorat (DMN inspeksiyasi, Hisob palatasi)
Amalga oshiruvchi	Tashkilotning o'z xodimi	Mustaqil davlat organlari
Davriylik	Doimiy, rejali (yillik reja)	Davriy, ehtiyojga qarab
Maqsad	Ichki jarayonlarni takomillashtirish, maslahat	Qonun buzilishlarini aniqlash, hisobot
Huquqiy asos	416-son qaror, Milliy standartlar	Hisob palatasi to'g'risidagi qonun, DMNI nizomi
Hisobot oluvchi	Muassasa/vazirlik rahbariyati	Oliy Majlis, Prezident, Prokuratura

2022-yil qonunchilik bazasi sezilarli darajada yaxshilandi: 416-son qaror, ichki audit qo'llanmasi va sertifikatlash nizomi qabul qilindi. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur hujjatlarning amaliy tatbiqi hali yetarli emasligi muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlillar ham aksariyat budjet muassasalari va tashkilotlarida ichki audit xizmati mavjud emasligi yoki qoniqarli tarzda faoliyat yuritmayotganini ko'rsatmoqda.

Aniqlangan asosiy normativ-amaliy tafovutlar quyidagilardir:

- 416-son qarorning 7-bandida belgilangan ichki audit tadbirlari milliy standartlar va qo'llanma asosida o'tkazilishi lozimligi qayd etilgan, biroq bu talabning bajarilishini monitoring qilish mexanizmi hali to'liq ishlamaydi.
- Sertifikatlash nizomiga (62-son buyruq) muvofiq ichki audit xodimi lavozimiga milliy malaka sertifikatiga ega shaxslar qabul qilinishi kerak, ammo sertifikatlash tizimi yangiligi sababli ko'plab tashkilotlarda bu talabni bajarishda qiyinchiliklar mavjud.
- Choraklik va yillik hisobotlarning Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'z vaqtida taqdim etilishi holatlari hali barqaror emas.

Budjet tashkilotlarida ichki audit samaradorligining asosiy cheklovchisi malakali kadrlar yetishmasligidir. Moliya akademiyasi va boshqa oliy ta'lim muassasalari tomonidan ichki auditorlarni maxsus tayyorlash dasturlari hali rivojlanish bosqichida.

- tuman va shahar budjet muassasalarida ichki audit xizmatlari sonining yetarli emasligi;
- zamonaviy risk tahlili, ma'lumotlar tahlili va IT-vositalardan foydalanish bo'yicha malakaning yetishmasligi;
- audit dasturiy ta'minotidan foydalanish darajasining pastligi.

Ichki auditni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillar va me'yoriy hujjatlar asosida quyidagi kompleks tavsiyalar ishlab chiqildi:

– Prezidentning PQ-128-son va Vazirlar Mahkamasining 416-son qarorlari doirasida quyi darajadagi budjet muassasalari (maktablar, kasalxonalar, ijtimoiy markazlar va boshqalar) uchun soddalashtirilgan ichki nazorat va ichki audit qoidalarini tasdiqlash.

– Kichik muassasalarda xizmat ko'rsatish shaklidagi audit modelini joriy etish.

– Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibini belgilovchi 377-son qaror normalarini kuchaytirish: baholash natijalarini moliya va nazorat organlariga oshkor etish, past ko'rsatkichli muassasalar uchun tuzatuvchi choralar belgilash.

– Fuqarolar ishtiroki to'g'risidagi 326-son qaror doirasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: ichki audit natijalarini "Davlat auditi" dasturida shaffof tarzda e'lon qilishni ta'minlash.

– Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga (ro'yxat №3406) risk asosida rejalashtirish bo'limini kuchaytirish: yillik risk matritsasini tuzish metodologiyasini yanada batafsil ishlab chiqish. Masofaviy audit texnologiyalarini kengaytirish va standartlashtirish.



- Axborot tizimlarini integratsiyalash: g'aznachilik, davlat xaridlari (uzex.uz) va budget ijrosi tizimlariga ichki audit dasturiy ta'minotini ulash orqali real vaqt rejimida monitoring imkonini yaratish.
- 62-son buyruq bilan belgilangan sertifikatlash tizimi samaradorligini oshirish: milliy malaka imtihonini yiliga kamida ikki marta o'tkazish, sertifikat olish jarayonini onlayn formatga o'tkazish.
- Moliya akademiyasi va Toshkent moliya institutida ichki audit bo'yicha ixtisoslashtirilgan magistratura dasturlarini ochish, budget tashkilotlari auditorlari uchun maqsadli davlat grantlarini joriy etish.
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: IIA (Ichki Auditorlar Xalqaro Instituti) va INTOSAI bilan hamkorlikda viloyat va tuman auditorlari uchun malaka oshirish seminarlarini tashkil etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budget tashkilotlarida ichki auditni rivojlantirish O'zbekistonda davlat moliyaviy boshqaruvini zamonaviylashtirish dasturining muhim qismidir. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

2022–2023-yillarda ichki auditni tartibga soluvchi yangi me'yoriy-huquqiy baza (416-son qaror, milliy standartlar qo'llanmasi, sertifikatlash nizomi) shakllandi. Bu muhim institutsional yutuq hisoblanadi. Biroq ushbu hujjatlarning amaliy tatbiqi hali to'liq ta'minlanmagan.

Ichki audit xizmatlarining tashkiliy mustaqilligini ta'minlash — 416-son qarorning markaziy talabi — hali ko'plab muassasalarda to'liq bajarilmayapti: audit bo'limlari rahbar o'rinbosari yoki bosh buxgalterga ham bo'ysunib qolmoqda.

Sertifikatlash tizimi (62-son buyruq) joriy etilishi ijobiy ahamiyatga ega, ammo milliy malaka sertifikati talabi barcha budget muassasalarida bajarilishi uchun kadrlar bazasini tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Ichki audit qo'llanmasida (ro'yxat №3406) masofaviy audit usulining joriy etilganligi zamonaviy yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi; bu tajribani kengaytirib, IT tizimlari bilan integratsiyalash lozim.

Ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan sohalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyatda ichki audit tizimini mustahkamlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ichki audit — bu faqat rasmiy talab emas, balki davlat boshqaruvida hisobdorlik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlovchi strategik vositadir. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar to'g'ri va izchil tatbiq etilsa, yaqin yillarda budget tashkilotlarida xatolar va suiste'mollar soni keskin kamayadi, davlat mablag'laridan samarali foydalanish esa sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" PQ-128-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8122315>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-yanvardagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 416-son qarori. [lex.uz/docs/-6136910](https://www.lex.uz/docs/-6136910)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 377-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7580715?ONDATE=19.06.2025>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyundagi "Fuqarolar ishtirokidagi audit o'tkaziladigan obyektning aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 326-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6059068?ONDATE=03.03.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3406, 27.12.2022). // [lex.uz/uz/docs/-6329874](https://www.lex.uz/uz/docs/-6329874)
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "Ichki audit xizmatlari xodimlarini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 62-son buyrug'i (ro'yxat raqami 6382777, 13.02.2023). // [lex.uz/docs/-6382777](https://www.lex.uz/docs/-6382777)
7. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni. — Toshkent, 25.02.2021. // [lex.uz/docs/-5307886](https://www.lex.uz/docs/-5307886)
8. Xamidova, Z. U. (2020). Budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish. Moliya va iqtisod, №2, 28–39-b.
9. Xolmatov, B. U., & Yusupov, N. A. (2023). Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlarining ta'siri. Moliya va bank ishi jurnali, №4, 45–58-b.
10. Karimov, A. K., Babadjanov, A. M., & Ahmedov, A. K. (2021). Ichki audit. Toshkent: Moliya instituti.
11. Institute of Internal Auditors (IIA). (2017). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (ISPPA). Lake Mary: IIA.
12. INTOSAI. (2004). Guidelines for Internal Control Standards for the Public Sector (INTOSAI GOV 9100). Vienna.
13. World Bank. (2023). Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) Assessment: Uzbekistan. Washington, D.C.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Ichki audit xizmati boshqarmasining 2024-yil faoliyati to'g'risidagi hisobot. // gov.uz/oz/imv/sections/view/22106



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
